



## “INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTONDAGI IMKONIYATLAR”

Rustamov Shoxrux Xusanbayevich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

1-bosqich magistranti

Shohruhrustamov1999@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15496322>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-May 2025 yil

Ma’qullandi: 20-May 2025 yil

Nashr qilindi: 23-May 2025 yil

### KEYWORDS

*Innovatsion strategiya, Ijtimoiy farovonlik, Iqtisodiy o‘shish, Ijtimoiy siyosat, Raqamli transformatsiya, Innovatsion siyosat, Iqtisodiy samaradorlik, Barqaror rivojlanish, Aholi turmush darajasi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqola iqtisodiyotning shakllanish jarayonida aholi farovonligini oshirishning samarali yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, ularning innovatsion iqtisodiyot orqali aholi turmush darajasini yaxshilash bo‘yicha samarali mexanizmlari aniqlanadi hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda innovatsion iqtisodiyot va aholi farovonligi tushunchalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi, rivojlangan davlatlarning ijtimoiy siyosati va iqtisodiy rivojlanish strategiyalaridagi innovatsion yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi. Xorijiy tajribadagi muvaffaqiyatli mexanizmlar va O‘zbekiston iqtisodiyoti xususiyatlariga tayangan holda, mamlakatda aholi farovonligini oshirish uchun innovatsion siyosat va strategiyalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti jadal o‘zgarishlar va raqamli transformatsiya davrida rivojlanmoqda. Aholi farovonligini ta‘minlash har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, inson kapitalining rivojlanishi, barqaror iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlik bevosita xalq turmush darajasining oshishiga bog‘liq. Innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiyotning yangi bosqichini belgilab, ilm-fan va texnologiyalar asosida iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga qaratilgan. Innovatsiya — bu nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu orqali aholi farovonligini oshirish uchun muhim omildir. Shu sababli, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida markaziy o‘rin tutadi.

Aholi farovonligi esa jamiyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, odamlarning turmush darajasi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ish bilan bandlik va yashash sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion iqtisodiyot orqali yaratilgan yangiliklar va ilg‘or texnologiyalar nafaqat milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlaydi, balki aholining turmush sifatini yaxshilash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga xizmat

qiladi. Shu bois, innovatsion iqtisodiyot bilan aholi farovonligini oshirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy masaladir.

Xorijiy davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotga asoslangan rivojlanish modeli nafaqat yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini, balki ijtimoiy farovonlikning oshishini ham ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi rivojlangan iqtisodiyotlar innovatsion siyosat orqali ijtimoiy barqarorlikka erishgan. Ushbu mamlakatlarning tajribasi O'zbekiston uchun qimmatli o'rganish manbai bo'lib, mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanish strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, raqobatbardosh bozor munosabatlarini yaratish yo'lida sezilarli qadamlar qo'ydi. So'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va strategik hujjatlar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Biroq, mamlakatda innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi farovonligini oshirish masalalari hali ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoitini solishtirish, samarali mexanizmlar va amaliy choralarni aniqlash bugungi kunda katta ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Innovatsion iqtisodiyot nazariyasining asoschisi sifatida avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter tanilgan. Uning ta'kidlashicha, innovatsiya — bu iste'mol mollari yangi turlari, yangi ishlab chiqarish vositalari, transport tizimlari, yangi bozorlar hamda sanoatdagi tashkilot shakllarini joriy etish va ulardan foydalanishga qaratilgan o'zgarishlardir (Ильминер, 2007). Tadqiqotchilar — E. Toffler, F. Fukuyama, D. Bell, J. Neysbit — innovatsion texnologiyalarga asoslangan davlatlar yuqori taraqqiyot darajasiga erisha olishini ta'kidlaganlar. Shuningdek, klassik va zamonaviy iqtisodchilar innovatsiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berganlar. Masalan, ingliz olimi Spenser (2000) innovatsiyani — aniq sharoitda yangi paydo bo'lgan va undan foydalanish mumkin bo'lgan narsa deb ifoda etgan.

Rossiyalik olimlar ham innovatsiya haqida o'z ta'riflarini keltirishgan: Kulagin (2011) uni innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional, moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalardagi yangiliklar deb atagan. Balabanov (2001) esa innovatsiyani kapitalning yangi texnika yoki texnologiya, ishlab chiqarish tashkiloti, mehnat, xizmat ko'rsatish hamda boshqaruvning yangi shakllariga, shu jumladan yangi nazorat, hisob, rejalashtirish va tahlil usullariga yo'naltirilgan natijasi deb ta'riflagan. Kantorovich (1986) innovatsiyani ixtironing amaliy ahamiyatini ko'rsatish va uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi yangilik sifatida qaragan. Frimanning (1987) fikricha, milliy innovatsion tizim – bu jamiyatdagi iqtisodiy subyektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqiy normalar) murakkab tizimi bo'lib, yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratishda, ularni saqlash, tarqatish va texnologiyalarga aylantirish jarayonlarida ishtirok etadi.

Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va farovonlik yo'lida" asarida esa islohotlarning yangi bosqichida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha strategiyalar yoritilgan. Bu fikrlar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi bilan amaliy bosqichga o'tdi. Ushbu hujjat aholining farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar – bandlikni

ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Innovatsiyaga oid ushbu tushuncha O'zbekiston olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Masalan, Shodimetov (2014) innovatsiyani moddiy ishlab chiqarish yoki sarmoya ko'paytmasi emas, balki boshqa bir jarayon deb baholagan. G'affarov (2019) innovatsiyani ixtironing amaliy jihatlarini ajratib ko'rsatish va uning muvaffaqiyatini kafolatlovchi yangilik deb ta'riflagan. Yo'ldoshev (2004) esa innovatsiyani ingliz tilidan olingan "innovation" so'zining tarjimai sifatida "yangilik kiritish" deb belgilagan va uni tizim ichidagi tuzilishni o'zgartirish amaliyoti hamda nazariyasining asosiy qismi deb hisoblagan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlar o'rtasidagi mos kelmaslik natijasida paydo bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat deb ta'riflagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni tasniflash, tahlil qilish va tizimli o'rganish hamda solishtirish usullaridan foydalangan. Shuningdek, monografik kuzatuv natijalari batafsil tahlil qilinib, mehnat bozoridagi muammolarni innovatsion xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali yumshatish mumkinligi ilmiy asos bilan tasdiqlandi.

#### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va uning aholi farovonligiga ta'siri bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitidagi holatni tahlil qilganimizda, innovatsion jarayonlar bilan farovonlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu bo'limda xorijiy mamlakatlardagi muvaffaqiyatli tajribalar, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri hamda O'zbekistonda ushbu yondashuvlarni amaliy tatbiq etish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

*Xorij tajribasida innovatsion iqtisodiyot va farovonlik.* Yevropa Ittifoqining innovatsion siyosati o'z a'zolarining ijtimoiy farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, 2023-yilgi Eurostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida innovatsiyaga qaratilgan xarajatlar yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning o'rtacha 2.2% ni tashkil qiladi. Bu esa ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirish orqali aholining daromad darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, Shvetsiya va Germaniya kabi davlatlarda innovatsion loyihalar bilan bog'liq ishchi o'rinlari so'nggi o'n yil ichida 15-20%ga ko'paygan. Natijada, bu mamlakatlarda farovonlik darajasi yuqori bo'lib, YaIMga nisbatan o'rtacha daromad 35,000-45,000 yevro atrofida.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan Janubiy Koreya va Singapurda innovatsion rivojlanishga qaratilgan siyosatlar xalqaro maydonda o'zining muvaffaqiyati bilan ajralib turadi. Janubiy Koreyada 2024-yilda innovatsiyalarga yalpi ichki mahsuloti innovatsiyalarga 0,15 foiz ajratiladi. Bu 21,9 trillion KRW miqdoridagi ilmiy-tadqiqot byudjetiga asoslanadi, bu nominal YaIMning 0,15 foizini tashkil qiladi va bu ko'rsatkich so'nggi o'n yilda doimiy o'sish tendensiyasida ega. Natijada, mamlakatda ish bilan bandlik darajasi 63,2% dan oshgan, bu o'tgan yilga nisbatan 0,1 foizga ko'pdir. 2024-yilda Janubiy Koreyaning yalpi milliy daromadi (yalpi milliy daromad) aholi jon boshiga 36 624 dollarga baholangan. Bu o'tgan yilga nisbatan 1,2 foizga ko'pdir, farovonlik darajasi yuqori bo'lib qolmoqda. Singapurda esa innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning keng qo'llanilishi davlat darajasida ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga imkon berdi.


AQSh iqtisodiyotida ham innovatsiya markaziy o‘rin tutadi. 2024-yilda AQShning innovatsiyalarga ajratilgan xarajatlari YaIMning 3.46% ni tashkil qilgan. Bu esa yangi texnologiyalar va startaplarning rivojlanishiga turtki berdi. Natijada, mamlakatda o‘rtacha oylik ish haqi 5,233 dollar atrofida bo‘lib, aholi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. AQShda raqamli iqtisodiyot hajmi 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning 18% ini tashkil etdi, bu esa AQSh iqtisodiyotida raqamli sektorning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi va ko‘plab yangi ish o‘rinlari hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta‘minladi.

*O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyot va farovonlik holati.* O‘zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda innovatsion iqtisodiyot rivojiga katta e‘tibor qaratmoqda. 2023-yil Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarga ajratilgan mablag‘lar yalpi ichki mahsulotning 0.3% ini tashkil etadi, bu esa yuqoridagi xorijiy davlatlarga nisbatan ancha pastdir. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda.

Misol uchun, 2022-yilda O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston” davlat dasturi doirasida qabul qilingan “Innovatsiyalarni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyot yaratish” konsepsiyasi asosida bir qator startaplar, innovatsion markazlar va texnoparklar tashkil etildi. Shu orqali 2023-yilda innovatsion loyihalar bilan bog‘liq ish o‘rinlari 15 mingdan oshdi, bu esa ish bilan band aholi qatlami uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-martdagi qaroriga asosan raqamli iqtisodiyot sohasida yangi soliq imtiyozlari joriy qilindi, bu tadbirkorlikni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda 2022-2024-yillarda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish orqali aholining o‘rtacha daromadi 7% ga o‘sishi rejalashtirilgan.

Ammo, O‘zbekiston sharoitida innovatsion iqtisodiyot rivojini cheklayotgan muammolar ham mavjud. Asosiylaridan biri - ilmiy-texnikaviy bazaning zaifligi va innovatsiyalarni moliyalashtirishning cheklanganligi hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda kamchiliklar mavjudligi ham taraqqiyotga to‘siq bo‘lmoqda. Biroq, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish orqali bu muammolar asta-sekin bartaraf etilmoqda.



**1-rasm. Aholi farovonligini ta'minlash ko'rsatkichlari: O'zbekiston va OECD davlatlari (2023)**

*Xorijiy tajribalarni O'zbekistonga moslashtirish imkoniyatlari.* Xorij tajribalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston innovatsion iqtisodiyot va aholi farovonligini oshirishda bir qator samarali yo'nalishlarni qabul qilishi mumkin. Jumladan, Yevropa mamlakatlaridagi kabi davlat tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirishni kuchaytirish, ilmiy-texnikaviy infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish muhimdir.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari misolida raqamli iqtisodiyot va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish hamda xalq bandligini oshirishga e'tibor qaratish kerak. Bu borada O'zbekiston uchun IT-parklarning faolligini oshirish, universitetlar va biznes o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

AQSh tajribasidan kelib chiqqan holda, innovatsion ekotizimni shakllantirish, jumladan investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va xususiy sektorni innovatsiyalarni tatbiq etishga jalb qilish O'zbekistonda farovonlikni oshirishning muhim yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning innovatsion siyosatini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda shakllantirish muhimdir. Bu esa, yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish kabi asosiy iqtisodiy sohalarda joriy etish orqali aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar**

O'zbekistonda aholining farovonligini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi raqamlashtirilmoqda, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda, aholini band qilishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholining turmush darajasini oshirish, daromadlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish va sifatli ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan teng imkoniyatni ta'minlash mamlakatdagi barqaror taraqqiyot uchun muhim omil

hisoblanadi. Xalqaro tajriba esa bu yo'nalishda institutsional barqarorlik va strategik uzluksizlik muhimligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot rivoji va aholi farovonligini oshirish o'rtasida mustahkam va uzviy bog'liqlik mavjud. Xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalari O'zbekiston uchun samarali yo'nalishlarni ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni kengaytirish, ularni davlat siyosati asosida rag'batlantirish, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish va malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va farovonlik yo'lida" Toshkent: "O'zbekiston" – 2020.
2. Z. Ibragimova "Aholi farovonligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar roli" T.: Iqtisodiyot-2020.
3. World Bank. Strengthening Social Protection in Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank Group, 2022, 72 b.
4. Ibragimova S.A, Xusainov R.R. (2021). Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari// Экономика и финансы (Узбекистан). №3 (139).
5. Kuznets S. (1953). Economic growth and income inequality/ S.Kuznets //American Economic Review. Vol. 45. No I.
6. Шумпетер Й. (1982) Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры: пер.с нем.-М.: Прогресс, С.455.
7. Эргашев Р.Х., Халиков С.Р., Тошбаев А.Ж. (2019). Инновацион иқтисодиёт: Дарслик ; - Т.: "Iqtisod-Moliya", - 396 б.